Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 82

ADABIYOT, MADANIYAT VA IJODIY TARJIMA

Mirkarim Osimning ”Ibn Sino” qissasida mutolaa va ilmiy tafakkur fenomenining badiiy tahlili

Gulnoza Qosimjon qizi Boqiyeva*

24-son o’rta maktab (Farg’ona tumani, Farg’ona viloyati)

✉ qosimjonovnagulnoza@gmail.com

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar

mutolaa, kitobxonlik, ilmiy tafakkur, ilm, ma’rifat, bilim, mustaqil fikrlash, intellekt, tarixiy-biografik qissa, badiiy obraz, psixologizm, ustoz-shogird, ilmiy izlanish, ma’naviy kamolot

DOI: 10.5281/zenodo.23279106

Kirish. O‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik qissa janrini shakllantirish va yuksaltirishda taniqli adib Mirkarim Osimning xizmatlari beqiyosdir. Uning “Ibn Sino” qissasi ushbu yo‘nalishdagi eng salmoqli asarlardan biri bo‘lib, buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning yoshlik yillari, ma’rifiy rivojlanish bosqichlari hamda uning mutolaaga bo‘lgan cheksiz ishtiyoqini yoritishga bag‘ishlangan. Maqolaning dolzarbligi shundaki, Mirkarim Osim qissasida Ibn Sinoning shunchaki biografik faktlari emas, balki uning shaxsiyati, favqulodda xotira va zakovat quvvati, kitobga muhabbati va mustaqil fikrlash qobiliyatining yetukligi badiiy-psixologik detallar orqali tahlil qilingan. Akademik Aziz Qayumov ta’kidlaganidek: “Ibn Sinoning bolalik va o‘spirinlik yillaridagi eng hayratlanarli jihati — uning mutolaaga bo‘lgan favqulodda ehtirosi hamda har qanday murakkab mantiqiy-falsafiy matnni mustaqil tahlil eta olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi”[1].

Materiallar. Tadqiqotning metodologik asosini Mirkarim Osimning “Ibn Sino” tarixiy qissasi matni hamda adabiyotshunoslik va badiiy psixologiyaga oid ilmiy manbalar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, biografik, psixologik, tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Yozuvchi Mahmud Massoh, Notiliy va Abu Mansur, Abu Ubayd va boshqa epizodlar orqali Ibn Sinoning dunyoqarashi va ilmga bo‘lgan cheksiz intilishini, uning ustoz va shogird munosabatlarini izchil ochib beradi. O‘n yoshida Qur’oni karimni to‘liq yod olgan Husayn nafaqat diniy-tasavvufiy, balki dunyoviy ilmlarni ham puxta egallashga kirishadi. Adib asarda uning mahallasidagi baqqol Mahmud Massohdan hind handasasi va riyoziyot ilmini o‘rganish jarayonini badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Mahmud Massoh o‘n yoshli bolaning har bir narsaga sinchkovlik bilan qarashini, mantiqiy savollar berishini kuzatib, uning zakosini “qilichdek o‘tkir” deb baholab, 10 yoshidan 12 yoshigacha unga hindi handasa va riyoziyotdan atroflicha saboq beradi. So‘ng bo‘lajak tabib Notiliy ismli ustodga shogirdlikka beriladi. Ustoz Notiliy shogirdining nodir xotirasi va mantiqiy idrokiga tan berib, unga mantiq va falsafa ilmlarini o‘rgata boshlaydi. Ibn Sino 14 yoshga yetganda Arastuning (Aristotel) “Metafizika” (Mobadattabia) asarini topib o‘qiydi va o‘zi to‘liq anglab yetmagan murakkab falsafiy tushunchalarni tahlil qilib berishini so‘rab ustoz Notiliyga murojaat qiladi. Ustoz asarni kechasi bilan sinchiklab o‘qib chiqsa-da, Arastu metafizikasining chuqur g‘oyalarini mag‘zini chaqishga ojizlik qiladi hamda shogirdiga nima deb javob berishni bilmay, nochor ahvolda: “Arastuni o‘qishga

hali yoshlik qilursiz” degan bahona bilan kitobni uning qo‘liga qaytarib beradi. Shundan so‘ng ustoz o‘zidagi bor bilim va mantiqiy salohiyatni Ibn Sinoga berib bo‘lganini, shogirdi uning bilim darajasidan o‘tib ketganini anglaydi va xonadondan ketish uchun izn so‘raydi. U ko‘chada Mahmud Massohni uchratib, o‘zining ojizligini hamda shogirdining favqulodda intellektini shunday e’tirof etadi: “Odam bolasida bunday xotira va zakovat quvvati bo‘ladi deb sira o‘ylamasdim. Meni shoshirib qo‘ydi. Mendagi bor bilimlarimni qoqib oldi ” [2], deydi. Doimiy va uzluksiz mutolaa, tirishqoqlik hamda amaliy izlanishlar natijasida Ibn Sino 17–18 yoshlaridayoq nafaqat mantiq, falsafa va riyoziyot, balki tibbiyot sohasida ham o‘z davrining eng yetuk va mutlaq bilim sohibi bo‘lgan yetakchi olimi darajasiga yetishadi. Uning kitobga va ilm olishga munosabatini mutaassib amaldorlarga aytgan quyidagi fikrlaridan ham anglab olish mumkin: “Ilmni Chin-Mochinga borib o‘rgansang ham joizdir, deganlar rasuli xudo. Kutubxona men uchun muqaddas joy — ibodatxonadir. Kitob haqiqatni o‘rganmoq va tabiat sirlarini anglamoqqa yordam beradur. Shu bilan birga, kitob johilligi tufayli o‘zini dono deb hisoblagan shaxslar makridan saqlaydur...”[3] Bu epizod orqali yozuvchi Ibn Sinoning mutolaaga bo‘lgan ma’rifiy va falsafiy munosabatini ko‘rsatadi, kitobxonlik u uchun shunchaki ko‘r-ko‘rona yodlash emas, balki soxta da’vogarlar hamda jaholat makridan saqlaydigan ma’rifiy va mantiqiy qalqon ekanligiga ishora qiladi.

Yozuvchi Ibn Sinoning xotira salohiyatini ham asarda mislsiz bir hodisa sifatida gavdalantiradi. U saroy kutubxonasidagi yuzlab va minglab nodir asarlarni shunchaki o‘qib chiqmaydi, balki ularning mazmunini tamomila o‘z zihniga joylaydi. U o‘zining xotira va bilim quvvatiga ishonch bilan: “Mabodo kutubxonaga o‘t tushib ketgudek bo‘lsa ham, undagi kitoblarni qaytadan yozib, sandiqlarni yana to‘ldirmoqqa qodirdurman”[4] deya ta’kidlaydi. Yozuvchi bu ishonchning amaliy va dramatik tasvirini Buxoroda kutubxonaga o‘t ketgan mash’um epizodda ochib beradi. Yong‘in sodir bo‘lganda, atrofdagi kishilar paqirlab suv tashib, alanganing shiddatidan chekinib, ko‘chada ojiz qarab turgan bir vaziyatda, Ibn Sino o‘z hayotini xavfga qo‘yib harakat qiladi. U xalqqa o‘tni o‘chirish uchun yordam berish bilan cheklanmay, alangasi tutab turgan bino ichiga bostirib kiradi. Kiyimlari yonib, alanga ichida qolgan bo‘lsa-da, Ibn Sino fidoyilik va ma’rifatparvarlik ko‘rsatib, kutubxonadagi bir qancha nodir kitoblarni olov changalidan qutqarib olib chiqishga muvaffaq bo‘ladi. Bu epizod Ibn Sinoning kitobga bo‘lgan cheksiz muhabbatini va ma’rifat yo‘lidagi haqiqiy jasoratini badiiy jihatdan yuksak cho‘qqiga olib chiqadi. Asarda kitobxonlik shaxsning ruhiy ehtiyoji darajasiga ko‘tarilgan. Otasining kutubxonasidagi arab va fors tilidagi manbalarni o‘rganib, “Yosh Jolinus” laqabiga sazovor bo‘lgan Ibn Sino tunlarni kitob ustida o‘tkazadi. Mirkarim Osim qahramonning ilmiy matonatini tasvirlashda o‘zgacha badiiy detaldan foydalanadi: tun yarimdan og‘ib, ko‘zlariga qum tiqilgandek charchoq bosganida, u to‘xtab qolmaydi. O‘zi tayyorlagan maxsus giyohli damlamani ichib, ko‘zini ravshanlashtiradi, zehnini tetiklashtirib, mutolaada davom etadi. Bu detal ilmiy kashfiyotlar ortida qanday og‘ir va mashaqqatli mehnat yotganini badiiy jihatdan asoslaydi. Yosh Husaynning kitobga bo‘lgan muhabbati quyidagi vaziyatda yanada yorqinroq o‘z ifodasini topgan. Somoniylar hukmdori Nuh ibn Mansurning og‘ir xastaligini saroy tabiblari davolay olmagan bir vaziyatda, 17–18 yoshli yosh tabib Ibn Sino uni tuzatadi. Adib xasta podshoh yosh tabib kelganida uning nigohidagi nodir iste’dod va buyuk quvvatni his qilib, xastaligiga qaramay o‘rnidan turib kutib olishini psixologik tasvir orqali ko‘rsatadi. Davolangan hukmdor unga behisob oltin-kumush va mol-mulk taklif etganda, Ibn Sino barchasini rad etib, faqat saroy kutubxonasidan foydalanishga ijozat so‘raydi. Bunga javoban Nuh ibn Mansur: “Umrimda puldan ilm-u urfonni yuqori qo‘yaturgan odamni birinchi ko‘rishim” [5] – deya hayratini yashirmaydi.

Mirkarim Osim asarda olim va hokimiyat munosabatini ham o‘zgacha talqin etadi. Buxoro, Gurganch, Jurjon, Mozandaron, Ray va Hamadon kabi shaharlardagi ko‘ch-ko‘chlar, amaldorlarning fitnalari va ijtimoiy tazyiqlarga qaramay, Ibn Sino o‘z ilmiy g‘ururini saqlab qoladi. Asarda uning shogirdi Juzjoniyning ichki kechinmalari orqali ushbu holat alohida ochib beriladi: U hukmdorlar oldiga yalinib borishni o‘ziga or deb bilgan ustodiga zavq bilan qarab: “Olim degan shunday mag‘rur va ilmining qadriga yetadigan bo‘lishi kerak, lekin u kambag‘alroq bir betob odam oldiga kelsa, bosh egib uning tomirini ko‘radi, haq ham olmaydi, qiziq ”, deb o‘ylar edi. Bu epizod Ibn Sinoning insonparvarlik va ma’rifatparvarlik tamoyillarini ko‘rsatadi: u hukmdorlar va amaldorlar oldida bosh egmaydi, ammo xasta va kambag‘al insonlar xizmatida beminnat durustlik ko‘rsatadi. Hamadon shahrida vazirlik martabasiga erishgan Ibn Sino ushbu imkoniyatdan ma’rifatni yuksaltirish va bunyodkorlik ishlari uchun foydalanadi. U shaharda keng ko‘lamli qurilishlarni olib boradi, olimlarga homiylik qiladi hamda tunlarini ilmiy asarlar yozishga bag‘ishlaydi. Biografik va badiiy tasvir uyg‘unligida adib olimn-

ing davlat yumushlari bilan birga mutolaa va ilmiy ijoddan uzilmaganini ko‘rsatadi. Biroq uning bu ma’rifiy ishlari va xalq orasidagi obro‘si saroydagi hasadgo‘y amaldorlarning qarshiligiga sabab bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Mirkarim Osim “Ibn Sino” qissasida buyuk olim obrazini yaratish mobaynida uning shaxsiyatidagi intellektual va ma’naviy omillarga alohida urg‘u bergan. Shu bilan birga, Ibn Sinoning mantiqiy, falsafiy hamda tibbiy tafakkurini 17–18 yoshidayoq mukammallikka olib chiqqan. Yuqorida ko‘rib o‘tgan vaziyatlar, bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalarning to‘laqonli, izchil va badiiy yoritilganligi Mirkarim Osimning tarixiy-biografik xarakter yaratish borasidagi mahoratini ko‘rsatibgina qolmay, zamonaviy kitobxonlik madaniyati va ilmiy izlanishlar uchun muhim ma’rifiy va estetik namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. — Toshkent: Fan. 1987. 129 b.
2. Mirkarim Osim. Ibn Sino qissasi. — Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985. 7-13-14-39-65 b.